



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI
TRANSPORT NAZORATI INSPEKSIYASI

BUYRUQ

6 dekabr 2024 yil.

905-son

Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida

Inspeksiya va hududiy bo‘limlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta‘sir choralari ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek, “Transport nazorati inspeksiya va hududiy bo‘limlariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti” ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Transport nazorati inspeksiya va hududiy bo‘limlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta‘sir choralari ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek, “Transport nazorati inspeksiya va hududiy bo‘limlariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti” rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Transport nazorati inspeksiya va hududiy bo‘limlarida korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari etib quyidagilar: Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish bo‘yicha Ishonch telefoni - 71-202-05-01 (515), elektron pochta manzili - antikorrupsiya@uztn.uz, telegramdagi rasmiy bot - @anticorruption_uztn_bot hamda rasmiy veb saytdagi sahifa - <https://uztn.uz/uz/activitylist/> kontakty2 belgilansin.

3. Transport nazorati inspeksiya va hududiy bo‘limlarida korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari etib quyidagilar: Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish bo‘yicha Ishonch telefoni - 71-202-05-01 (515), elektron pochta manzili - antikorrupsiya@uztn.uz, telegramdagi rasmiy bot - @anticorruption_uztn_bot hamda rasmiy veb saytdagi sahifa - <https://uztn.uz/uz/activitylist/> kontakty2 belgilansin.

4. Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqishga Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo‘yicha bosh mutaxassisi O‘.Ochilov mas‘ul etib belgilansin.

5. Inspeksiyaning quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi Inspeksiyalarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom va Inspeksiyaning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi

to'g'risidagi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro'yxatga olinsin va rezolyusiya uchun inspeksiya rahbariga kiritilsin.

6. Devonxona (D.Fazilova) mazkur buyruq inspeksiya markaziy apparati, hududiy bo'lim boshliqlariga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Inspeksiya boshlig'i



J.Karimov